

**ABDULLA AVLONIYNING O'ZBEK MATBUOTCHILIGIDA TUTGAN
O'RNI**

Jo'rayev Oybek Sherali o'g'li

Nizomiy nomidagi TDPU, O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

3-bosqich talabasi

ABDULLA AVLANI'S POSITION IN THE UZBEK PRESS

Jorayev Oybek Sherali ogli

TDPU named after Nizami, Uzbek Language and

Literature Department 3rd Grade Student

Annotatsiya:

Ushbu maqolada o'zbek davlatchilik tarixida matbuotning yuzaga kelishi va bu matbuotchilik harakatida faol qatnashgan M.Behbudi, M.Abdurashidxonov, Obidjon Mahmudov, Ismoil Obidov, Ashurali Zohiriy, Ubaydulla Xo'jayev, Abdulla Avloniy kabi insonlarning faoliyatiga to'xtanilgan.

Abstract:

This article focuses on the emergence of the press in the history of Uzbek statehood and the activities of such people as M.Behbudi, M.Abdurashidkhanov, Obidjon Mahmudov, Ismail Obidov, Ashurali Zahiri, Ubaidulla Khojayev, Abdulla Avlani, who actively participated in this press movement.

Kalit so'zlar: matbuot, gazeta, Turkiston, jurnal, mustaqillik, demokratiya, Bektemirov, drama, g'oya, mafkura.

Keywords: press, newspaper, Turkestan, magazine, independence, democracy, Bektemirov, drama, idea, ideology.

Jamiyatimizda demokratik qadriyatlarni qaror toptirish, fuqarolarimizning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash, dunyoda va mamlakatimizda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, voqeа-hodisalar haqida tezkor va haqqoniy ma'lumotlar yetkazish borasida siz, matbuot ahlining fidokorona mehnat qilayotganingizni xalqimiz yaxshi biladi va yuksak qadrlaydi. Sizlar kabi ming-minglab oljanob kasb egalarining sa'y - harakatlari, iste'dod va mahorati bilan mamlakatimiz ommaviy axborot vositalari xalqimiz hayotiga,

uning quvonch va tashvishlariga tobora yaqin bo‘lib, O‘zbekistonning yangi, demokratik qiyofasini shakllantirishda g‘oyat muhim rol o‘ynamoqda [3].

O‘zbek davlatchilik tarixida matbuotning yuzaga kelishi milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotining vakillari hisoblangan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Tavollo, Ibrat, Cho‘lpon, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Fitrat, Abdulla Avloniy kabi jadidchi olimlar nomlari bilan bog‘liq.

1905-yilda Rossiyada bo‘lgan inqilobiy harakatlardan so‘ng, Turkistonda milliy matbuot yuzaga keldi va bir qator yangi nashrlar chiqqa boshladi: “Taraqqiy” - bu gazeta 1906-1907-yillarda Toshkentda Ismoil Obidov rahbarligida nashr etilgan bo‘lsa, “Xurshid” gazetasi 1906-1907-yillarda Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov muharrirligi ostida bosilib chiqqan.

“Buxoroi Sharif” gazetasi 1912-1913-yillarda Buxoroda tojik tilida Mirzo Jalol Yusufzoda muharrirligida nashr etilgan bo‘lib, u Mirbadalov familyali noshir tomonidan nashrga tayyorlangan bo‘lsa, “Turon” Mirbadalov muharrirligida 1912- yildan boshlab Buxoroda chop etilgan. “Samarkand” gazetasi 1914-yilda Samarqandda Mahmudxo‘ja Behbudiy tomonidan nashr etilgan.

Jumladan, “Sadoi Farg‘ona” gazetasi 1914-1915-yillarda Qo‘qon shahrida Ashurali Zohiriy muharrirligida nashr etilgan bo‘lib, uning noshiri Obidjon Maxmudov edi. “Sadoi Turkiston” gazeta esa 1914-1915-yillarda jadid siyosatchilar hisoblangan Munavvarqori va Ubaydulla Xo‘jayev muharrirligida nashr etilgan.

Abdulla Avloniy 1907-yilda «Shuhrat», «Osiyo» nomli o‘z davrining muammo va kamchiliklarini yuzaga chiqarishga mo‘ljallangan gazetalar chiqara boshlasada, rus imperiyasi bu gazetalarning faoliyati uzoqqa borishiga yo‘l qo‘ymaydi. Abdulla Avloniy ma’lum vaqtidan so‘ng «Sadoyi Turkiston», «Turon», «Ishtirokiyun» gazetalarida, «Kasabachilik harakati» kabi jurnallarda o‘z faoliyatini olib boradi. Shu tariqa Abdulla Avloniy o‘zbek matbuotining zabardast vakili, o‘zbek matbuotining asoschilaridan biri sifatida taniladi. XX asr boshlarida O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi pedagogik fikrlar rivojida Abdulla Avloniyning alohida o‘rni bor. U o‘zbek xalqning san’ati va adabiyoti hamda milliy madaniyatini, maorifchilik ishlarini yo‘lga qo‘yishda katta xizmat qilgan jadid adabiyotining atoqli vakillaridan biridir.

Abdulla Avloniy 1914-1915-yillarda advokat Ubaydulla Xo‘jayev bilan “Sadoyi Turkiston” gazetasida hamkorlik qiladi. “Shuhrat” gazetasi 1907-1908 - yillarda Toshkent shahrida Abdulla Avloniyning tashabbusi bilan nashr etilgan. Keyinchalik “Shuhrat” gazetasi 1908-yilda yopilgandan so‘ng ham Avloniy ahididan qaytmaydi. Borib Bektimirov nomiga “Osiyo” gazetasini chiqara

boshlaydi. Gazeta Toshkentda Bektemirovning uyida nashr etilsa-da, gazetaga Abdulla Avloniy rahbarlik qilgan. Ammo bu hali jadidchilik harakatining g‘alaba qozonganini anglatmasdi. Buxorodagi ijtimoiy holat va jadidlarning bu yerdagi bosqinchilik, nafaqat, amirning har qanday taraqqiyotga va radikal harakatlarga yo‘l bermaganligi yetmaganiday din peshvolarining har qanday yangilikka qarshi qaratilgan siyosati taraqqiy topishga imkon bermas edi.

Shuning uchun ham jadidlar imperiyani tugatilishi va hukumat o‘zgarishidan katta umid qiladi. Sababi shundaki, hokimyat almashsa va tuzum o‘zgarsa mustaqil bo‘lish imkoniyati paydo bo‘lar edi. 1917-yil oktabrda davlat to‘natirishi o‘tkaziladi va imperatorlik hokimiyati tugatilib, Sovet ittifoqi tuziladisada, biroq hech qanday o‘zgarish bo‘lmaydi, vaziyat yanada murakkablashib, xalqning yashash tarzi qiyinlashadi. Shunday holatda ham jadidlar chekinmadilar, ular matbuotni oyoqlantirdi. Aholining katta qismini savodsiz aholi tashkil qilganligi sababli ham ular o‘z g‘oyalarini dramatik asarlar yozish va ularni sahnada ijro etish orqali yetkazmoqchi bo‘ladilar. Shu tariqa jadidlar o‘z g‘oyalarini matbuot va dramatik asarlarni sahnalashtirish orqali targ‘ib qilishni ko‘zda tutadilar.

Abdulla Avloniy 1917-yil to‘ntarishiga qadar Turkistonda juda katta ijtimoiyma’rifiy ishlarni amalgalashdi. Oshirgan jadidchilik harakatining ko‘zga ko‘ringan namoyandalaridan biri sifatida shakllanadi. Avloniy o‘sha davrning ilg‘or, bilimli insonlari bilan birqalikda teatr uchun dramatik tomoshalar va matbuotdan kelgan moliyaviy mablag‘lar hisobiga dunyoviy bilimlarni o‘rgatadigan «usuli jadid», ya’ni yangicha yo‘nalishidagi yangi maktablar ochdi. Adib bu maktablarda xalq bolalarini bepul o‘qitdi, hattoki, chet davlatlarga ham o‘qishga yuborildi. Buyuk adabiyotshunos olim, o‘zbek xalqining ulug‘ farzandi Fitrat ham 1909-yilda shu maktabdan Istanbulga o‘qishga yuborilgan edi [1, 6].

Jadidlar o‘zlarining oralaridan buyuk olimlar, ma’naviyatli, aqlli mutaxassislar, madaniyat arboblari yetishib chiqib, o‘lkasini obod, yurtini ozod, farovon etishlarini orzu qildilar va bu yo‘lda fidoyilik ko‘rsatdilar.

“Abdulla Avloniy o‘z davrida kishilarda, yosh avlodda chin insoniy axloqiy xislatlar tarbiyalashni istadi. U ta’lim va tarbiya, ilm va ma’rifat olish yo‘li bilan vatandoshlarining baxtli va saodatli bo‘lishini orzu qildi”, - deya yozadi M.Maxsumov [2; 148]).

Xulosa qilib aytganda, jadidlar o‘z faoliyatlari davomida siyosat, matbuot, ma’orif, adabiyotshunoslik, publisistik, tilshunoslik, eng asosiysi ijodkorlik faoliyati orqali jamiyatga juda katta ijobiy o‘zgarishlarni olib kirdilar. Tarixda

o‘z o‘rni, so‘ziga ega inson, so‘zi bilan amali bir keladigan shaxs ekanliklarini isbotladilar va bu orqali nomlarini abadiyatga muhrladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdujamilovna, Kalandarova Dilafruz. "Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11.5 (2021): 500-503.
2. Dilafruz, Kalandarova. "Issues Of Uzbek Folklore And Its Research In Germany." Journal of Positive School Psychology 6.9 (2022): 4395-4398.
3. Reichl, Karl. Routledge Revivals: Turkic Oral Epic Poetry (1992): Traditions, Forms, Poetic Structure. Routledge, 2018.
4. Каландарова, Д. А., and З. Ф. Каршибоева. "ХАРАКТЕР ТВОРЦА В ПОЭЗИИ БАБУРА." Интеллектуальное наследие Захириддина Мухаммада Бабура и современность. Сборник статей и тезисов докладов Международной научно-практической конференции 28 февраля 2020 г.. Litres, 2022.
5. Kalandarova Dilafruz, Dilafruz. "Research of the Sherabad Epic School Abroad." International Journal on Integrated Education 5.10 (2022): 149-151.
6. Alimova, Z. K. "Organization of Non-State Preschool Educational Organizations and Licensing of their Activities." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.1 (2022): 268-273.
7. Mansurovna, Rasulova Iroda, and Alimova Zulfiya Karimovna. "The formation of the psyche of preschool children through physical education and sports." European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 7.12 (2019).
8. Karimovna, Alimova Zulfiya. "Reforms in the Field of Preschool Education and Modern Pedagogical Methods of Teaching." INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION 1.5 (2022): 105-110.
9. Karimovna, Alimova Zulfiya. "Education of children through national mobile games in preschool educational institutions." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11.5 (2021): 486-490.
10. Алимова, Зулфия Каримовна, and Дилафуз Абдужамиловна Каландарова. "Воспитание детей в духе национальных традиций и ценностей в дошкольных образовательных учреждениях." ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ. 2020.

11.Алимова, З. К., and И. М. Расурова. "ФОРМИРОВАНИЕ ДУХОВНОСТИ ЛИЧНОСТИ В ТВОРЧЕСТВЕ ЗАХИРИДДИНА МУХАММАДА БАБУРА." Интеллектуальное наследие Захириддина Мухаммада Бабура и современность. Сборник статей и тезисов докладов Международной научно-практической конференции 28 февраля 2020 г.. Litres, 2022.